



**PANDEMIYALAR TARIXI VA ULARNING INSONIYAT  
RIVOJIGA TA'SIRI**

*Ilmiy Rahbari: Alfraganus universiteti*

*Klinik fanlari kafedrasi assistenti*

*Maxmanazarov G'afur Axnazarovich*

*To'xtasinov Ibrohimjon*

*Alfraganus Universiteti*

*Tibbiyot kafedrasi, davolashyo'nalishi*

*2-kurs 240-guruh talabasi*

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolamda insoniyat tarixida ro'y bergan yirik pandemiylar, ularning kelib chiqish sabablari va jamiyatga ta'siri ilmiy asosda tahlil qilingan. Pandemiyalarning salbiy va ijobjiy oqibatlari, shuningdek, tibbiyot, iqtisodiyot va ijtimoiy munosabatlardagi o'zgarishlar ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Pandemiya, vabo, tibbiyot tarixi, global inqiroz, sog'liqni saqlash, jamiyat, iqtisodiyot

### **Kirish**

Pandemiylar — bu butun dunyo bo'ylab tarqaluvchi yuqumli kasalliklar bo'lib, insoniyat tarixida muhim burilishlarga sabab bo'lgan. Ular millionlab insonlarning hayotiga zomin bo'lgan, davlatlar iqtisodiyotini izdan chiqargan, sog'liqni saqlash tizimlarini sinovdan o'tkazgan va yangi ijtimoiy qadriyatlar shakllanishiga turtki bo'lgan. Ushbu maqolada pandemiyalarning tarixiy rivoji, ularning sabablari va jamiyat hayotiga ko'rsatgan ta'siri yoritiladi.

### **Asosiy qism**

#### **1. Qadimgi pandemiylar**

a) Afina vabosi (mil. avv. 430-yil)

Bu pandemiya Afina shahrida Peloponnes urushi vaqtida sodir bo'lgan. Tarixchi Fukas ta'rifiga ko'ra, kasallik tezda tarqalib, shaharning uchdan bir qismini



yo‘q qilgan. Bu pandemiya siyosiy beqarorlik va urushda mag‘lubiyatga sabab bo‘lgan.

b) Yustinian vabosi (541–542-yillar)

Vizantiya imperiyasini qamrab olgan bu kasallik har kuni minglab odamlarni hayotdan olib ketgan. Taxminan 50 million odam vafot etgan. Bu esa imperiyaning iqtisodiy va harbiy kuchsizlanishiga olib kelgan.

## 2. O‘rta asr pandemiyalari

a) Qora o‘lim (1347–1351-yillar)

Eng dahshatli pandemiyalardan biri bo‘lib, Yevropaning uchdan bir qismini yo‘q qilgan (taxminan 75–100 million odam). U Plague bakteriyasi (*Yersinia pestis*) orqali tarqalgan. Bu pandemiya feodalizmning yemirilishiga, mehnatga bo‘lgan munosabatning o‘zgarishiga va Yevropadagi siyosiy tizimning yangilanishiga olib kelgan.

## 3. Yaqin tarix pandemiyalari

a) Ispan grippi (1918–1920-yillar)

Birinchi jahon urushidan keyin yuzaga kelgan bu gripp pandemiyasi 50 milliondan ortiq odam hayotiga zomin bo‘lgan. Kasallik asosan yosh, sog‘lom insonlarga ta’sir qilgan. Ispan grippi sog‘liqni saqlash tizimlarining zaifligini ochib berdi.

b) COVID-19 pandemiyasi (2019–hozirgacha)

XXI asrning eng katta pandemiyasi bo‘lib, 2020-yilda rasman pandemiya deb e’lon qilindi. SARS-CoV-2 virusi insoniyat hayot tarzini o‘zgartirib yubordi. Butun dunyo karantin, masofaviy ta’lim, sog‘liqni saqlashda raqamlashtirish, emlash kampaniyalari bilan shug‘ullandi. Pandemiya iqtisodiy inqiroz, ishsizlik va ruhiy salomatlik muammolarini ham keltirib chiqardi.



## Pandemiylar tarixi va ularning insoniyat rivojiga ta'siri

Pandemiya	Davr	Ta'siri
Afina vabosi	mil.avv. 430-yil	Qariyb 100 ming odam vafot etgan; Peloponnes urushiga ta'sir qilgan
Yustinian vabosi	541–542 yili	25–50 million odam nobud bo'igan; Vizantiya imperiyasi zaiflashgan
Qora o'lim	1347–1351–yillar	75–100 million odam halok bo'lgan; feodalizm inqirozga uchragan
Ispan grippi	1918–1920–yillar	50 milliondan ortiq odam olgan; sog'liqni saqlash zaifligini ko'rsatgan
COVID-19	2019–hozirgacha	Butun dunyo karantina; vaksinalar, iqtisodiy inqiroz

### Pandemiyalarning insoniyatga ta'siri

#### 1. Tibbiy taraqqiyot

Pandemiylar ilm-fan va tibbiyot rivojiga kuchli turtki bergan. Masalan, Qora o'limdan so'ng kasallik tarqalish yo'llarini o'rganish, antiseptika va gigiyena qoidalari kuchaydi. COVID-19 davrida esa vaksina ishlab chiqish texnologiyasi tezlashtirildi (mRNA vaksinalar).

#### 2. Ijtimoiy va madaniy o'zgarishla

Karantin va izolyatsiya jamiyatlarda insonlar orasidagi mas'uliyatni oshirdi, oilaviy qadriyatlar kuchaydi. Biroq, bir vaqtning o'zida yolg'izlik, ijtimoiy stress va ruhiy tushkunlik holatlari ko'paydi.



### 3. Iqtisodiy oqibatlar

Pandemiyalar ko‘plab sohalarda inqirozlarga sabab bo‘lgan. Masalan, Qora o‘limdan keyin mehnat kuchi kamaygan, bu esa ishchilarga talabni oshirgan. COVID-19 pandemiyasi esa turizm, aviatsiya, xizmat ko‘rsatish sohalarini izdan chiqardi.

### 4. Raqamli transformatsiya

COVID-19 pandemiyasi global raqamli transformatsiyani jadallashtirdi. Onlayn ta’lim, masofaviy ish, telemeditsina keng joriy qilindi.

### Xulosa

Pandemiyalar insoniyat tarixida halokatli bo‘lishiga qaramay, ular tibbiyat, ilm-fan, madaniyat va texnologiyalarning rivojlanishiga turki bergen. Har bir pandemiya orqasidan dunyo yangicha yashash tarziga o‘tgan, sog‘liqni saqlash tizimlari mustahkamlangan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.”ICHKI KASALLIKLAR” Sh.M. Rahimov, F.K. Gaffarova, G.A. Ataxodjayeva
2. “ПРОПЕДЕВТИКА ВНУТРЕННИХ БОЛЕЗНЕЙ” А.Г. ГАДАЕВ, М.Ш. КАРИМОВ, А.Г. КУЧЕР, Х.С. АХМЕДОВ